

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

*Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.5 (575.1)*

BARNOQULOVA MARJONA OTABEK QIZI
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI QARZDORLIKNI
VUJUDGA KELISHINI BARTARAF ETISH

70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi
bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof.v.b. A. Yadgarov

TOSHKENT - 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

2 - sonli bayonnoma « 22 » aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.v.b. A. Yadgarov



Talaba: M. Barnoqulova


Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil “ 13 ” 05.

№ 1/07 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Yashil iqtisodiyot”

kafedrasi mudiri, prof. I. Xotamov



“ 07 ” 05 2024 yil

Himoya 2024 yil “ ” 15.05 soat 14⁰⁰ da

“Texnopark” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Dissertatsiyada tijorat banklarida aktivlarni tarkibi va ularni guruhlash, muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularni paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ularning tahlili asosida o'rganilgan. shuningdek, banklarning kreditlash jarayonidagi muammoli kreditlarga olib keluvchi belgilari ham yoritilgan.

Tijorat banklarining hozirgi holat tahlili shuni ko'rsatadiki, bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi muammolar iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishiga to'sqinlik qilayotganligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchi olimlar tomonidan "muammoli kredit" tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko'proq bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bejizga emas, chunki bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi, uni kamaytirish choralari ko'rilishiga qaramasdan anchagina yuqori foizni tashkil etmoqda. Shu boisdan bugungi kunda ko'pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligi hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar, kredit portfellari, kredit, risk, muddati o'tgan to'lovlar.

ANNOTATION

In the thesis, the composition of assets in commercial banks and their grouping, the reasons for the emergence of problematic assets and the internal and external factors affecting their emergence, based on their analysis, were studied. Also the signs leading to acceptable loans in the lending process of banks are also covered.

The analysis of the current state of commercial banks shows that problems such as high level of state intervention in the banking sector, insufficient quality of management and risk management in state-owned banks, low level of financial intermediation in the economy hinder economic renewal and development in accordance with the needs of society. Currently, in our country, the concept of "problem credit" is causing much more debates and discussions by theoretical and practical scientists. This is certainly not in vain, because today the share of problem loans in the loan portfolio of commercial banks of our republic is quite high, despite the measures taken to reduce it. Therefore, due to the fact that many countries are facing the problem of increasing bad debts in the banking system, the urgency of improving the system of working with problematic loans of banks is gaining importance until now. Therefore, as well as creditors, there are unsolved problems related to loan repayment by customers.

Key words: commercial banks, assets, loan portfolios, credit, risk, overdue payments.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	6
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	8
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	9
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	10
1.5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.....	10
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	11
2.1. Kirish.....	11
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	16
2.3. Mahalliy me'yoriy- huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	26
3.1. Tadqiqot dizayni.....	26
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	26
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	27
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur shart- sharoitlar.....	27
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	28
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	29
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	30
4.1. Tijorat banklarida uzoq muddatli kreditlash mexanizmining nazariy asoslari.....	30
4.2. Tijorat banklarida muammoli qarzdorlikning joriy holati va ularning tahlillari.....	44
4.3. Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishni takomillashtirish yo'llari.....	57
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	65
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	65
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	66
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70

KIRISH

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilab berdilar. Bunga ko‘ra, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirishga alohida to‘xtalib o‘tilgan.¹

Xalqaro amaliyotda aktivlarning mohiyati keng ma‘noda avval amalga oshirilgan operatsiyalar, mol-mulk xarid etish yoki o‘z mol-mulkini uchinchi shaxslarga vaqtincha foydalanishga berishlik bilan kelajakda olinadigan iqtisodiy manfaatlar tushuniladi. Kelajakdagi iqtisodiy manfaatlar esa aktivlarning o‘z egalariga ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanishdagi, majburiyatlarni to‘lab berishdagi yoki majburiyatlarni boshqa aktivlarga almashtirib berishdagi xususiyatiga bog‘liq. Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanishni o‘zida aks ettirgan buxgalteriya balansidan iborat².

Mamlakatimizda tijorat banklarining buxgalteriya balansi 2 ta tarkibiy qismdan: passiv va aktivlardan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida hosil bo‘ladi. Tijorat banklari tomonidan o‘z va jalb etilgan pul mablag‘laridan ma‘lum daromad olish va o‘zining likvidligini ta‘minlash maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar deyiladi. Tijorat banklari jalb qilingan mablag‘lardan ko‘pincha kredit berish tarzida foydalanib kelinadi, bunda nafaqat daromad olish, balki mablag‘larni “kredit oluvchi” dan to‘laligicha undirib olish masalasini oldindan aniqlab olishi zarur. Chunki, “bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanishni ma‘lum bir

¹ lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni

² www.finance.uz Kredit tarixini shakllantirishda boshqa manbalardan ham foydalaniladi. //16 yanvar 2022